



## INTRODUKTSIYA QILINGAN BA'ZI DORIVOR O'SIMLIKLAR TASNIFI

V.Yu.Isaqov

Qo'qon davlat pedagogika instituti professori, b.f.d.

Sh.Z.Zafarov

Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada introduktsiya qilingan ba'zi dorivor o'simliklar tasnifi masalasi tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** introduktsiya, noni, papayya, ingichka bargli lavanda

O'simliklar dunyosi tabiatning ajralmas qismi hisoblanadi. Yer yuzidagi hayotning davomiyligini o'simliklarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insonlar o'simliklardan turli sohalarda, tibbiyotda, sanoatda va kundalik hayotda foydalanadilar. Shuningdek, o'simliklar tabiatda kislorod chiqarib berishi va karbonat angidrid gazlarini me'yorlashtirib berishi bilan ham muhimligi hammaga ma'lum.

O'simliklar tabiat boyliklaridan biri bo'lib, ular yer sharidagi tiriklikni ta'minlovchi asosiy manbadir. Ular ozuqa zanjirida asosiy rolni o'ynaydi. Bundan tashqari, inson va hayvonot dunyosining turli xastaliklarni davolovchi manba bo'lib ham xizmat qiladi.

“Mehrigiyo” korxonasi Farg'ona vodiysidagi So'x konus yoyilmasining o'rta qismida joylashgan. “Mexrigiyo” korxonasida o'suvchi tabiiy, madaniylashtirilgan hamda introduktsiya qilingan dorivor o'simliklar tavsifi qisqacha o'rganildi. Quyida ana shunday ahamiyatga molik bo'lgan introduktsiya qilingan dorivor o'simliklarning tavsifiga to'htalib o'tamiz.

**Noni** – *Morinda citrifolia* L. *Morinda citrifolia* L. - «noni» nomi bilan mashhur bo'lgan *Rubiaceae* (*Rubioideae* kenja oilasi) oilasiga mansub dorivor va oziq-ovqat o'simligi. *Rubiaceae* oilasi 80 ga yaqin turni oz ichiga qamrab oladi. Ushbu oiladan *M.citrifolia*, *M.bracteata* va *M.potteri* yetishtiriladigan turlar hisoblanadi. Ularning har biri barglari va mevalarning shakliga nisbatan bir oz farq qiladi. Ular orasida eng ko'p ekiladigan va yetishtiriladigani noni hisoblanadi. *Morinda citrifolia* L. Janubi-Sharqiy



Osiyoda, sharqiy Polineziya, Hindiston, Karib dengizi, Meksika va Janubiy Amerikada keng tarqalgan.

Noni o‘simligi yil davomida meva beradi, qishda esa miqdori kamayadi. Mevalarining shakllanishi ekilgandan so‘ng 9 oy va 1 yil orasida sodir bo‘ladi.

**Guava – *Psidium guajava* L.** Guava (*Psidium guajava* L.) daraxti *Myrtaceae* oilasiga mansub, dorivor va ozuqaviy xususiyatlari tufayli ekib o‘stiriladigan noyob va an‘anaviy o‘simlik hisoblanadi. Guava Hindiston, Indoneziya, Pokiston, Bangladesh va Janubiy Amerika kabi tropik mintaqalarda o‘stirilib, muhim meva sifatida ishlatiladi. Guava daraxtining ildizlari, barglari, poya po‘sti, poyasi va mevalari ko‘plab mamlakatlarda oshqozon og‘rig‘i, qandli diabet, diareya va nafas olish organlari kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi. *Psidium* turkumi 150 ga yaqin turni o‘z ichiga oladi, lekin *Psidium guajava* – bu turkumning eng muhim turlaridan biri hisoblanadi. Ko‘plab manbalarda guava Meksikaning janubidan Markaziy Amerikaga yoki u orqali o‘tadigan hududdan kelib chiqqan deb aytiladi.

Mevasining og‘irligi 100-250 g va diametri 5-10 sm bo‘lgan o‘rtacha o‘lchamli bo‘lib, tepasida to‘rt yoki beshta gul qoldiqlari bor. O‘simlikning xushbo‘y hidli gullarida 4-6 ta oq rangli gultojbarglari va sariq rangli changchilari bor va changlanish hasharotlar tomonidan sodir bo‘ladi. Botanik jihatdan guava mevasi rezavor hisoblanadi. Turiga va naviga qarab, mevasi sharsimon, tuxumsimon shaklda bo‘lishi mumkin. Meva yuzasi notekis. Pishmagan mevalarning qobig‘i asosan to‘q yashil rangga ega. Etilish davrida naviga qarab sarg‘ish-yashil, och sariq va sarg‘ish rangga o‘zgaradi, etilishning so‘ngi davrida mevaning bandga birikkan qismining atrofi qizil rangga kiradi.

**Papaya – *Carica papaya* L.** Papayya balandligi 10 m gacha o‘sadigan daraxtsimon o‘simlik. Uning vatani Markaziy Amerikaning tropik va sharqiy qismidir. *C.papaya* *Caricaceae* oilasiga mansub bo‘lib, oziq-ovqat mahsuloti sifatida dunyoning ko‘pgina tropik mamlakatlarida yetishtiriladi. *C.papaya* madaniy holatda dastlab 1525 yilgacha Panama va Dominikan Respublikasi xududlarida etishtirilganligi haqida ma‘lumotlar uchraydi. Bu erdan *C. papaya* ni etishtirish Meksikaning janubiy va markaziy qismiga



tarqalgan. 1616 yilda Amerika, G'arbiy Hindiston, Bagama va Bermud orollarida ham yetishtiriladi.

Ispanlar tomonidan *C. papaya* urug'ini 1550 yilda Filippin va Malakkaga olib kelingan, u erdan o'simlik 1626 yilda Hindiston va Neapol qirolligiga etib kelgan. Mazkur o'simlik keyinchalik dunyoning barcha tropik va subtropik mintaqalarida jumladan, Avstraliya, Gavayi, Shri-Lanka va Janubiy Afrikada plantasiya ekini sifatida ekila boshlagan. 1950-yillarda *C. papaya* Italiyalik tadbirkor Albert Santo tomonidan Santa-Marta (Kolumbiya), Puerto-Riko va Kubadan Mayami va Nyu-Yorkka olib kelingan. *C. papaya* 1959-yilda janubiy va markaziy Floridada tijorat miqyosida oziq-ovqat mahsuloti sifatida etishtirilgan.

**Ingichka bargli lavanda – *Lavandula angustifolia* Mill.** Mamlakatimiz florasida lavanda dorivor o'simligi tabiiy holda uchramaydi. Ammo, *L. angustifolia* ni introduksiya qilish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar va Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani «Mehrigiyo» xususiy korxonasi tomonidan olib borilgan amaliy ishlar natijasida ushbu tur eskidan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarda o'stirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatdi.

Dorivor lavanda Labguldoshlar (*Labiaceae*) oilasiga mansub o'simlik. Lavanda balandligi 40-80 sm dan 100-150 sm gacha bo'lgan dorivor va manzarali chalabuta o'simlik. Gullari gunafsha rangli, to'pguli supurgisimon. Gullashi may-iyul oylariga to'g'ri keladi. O'simliklar asosan 3-yildan so'ng qiyg'os gullaydi. Uning bitta to'pgulida 16-25 tagacha gul bo'ladi. Uning gullari ertalab ochiladi, entomofil usulda changlanadi. Generativ (urug'idan) va vegetativ (qalamchalari) usullar bilan ko'payadi. Sovuqqa juda chidamli o'simlik.

**Mushmulla- *Mespilus germanica* L.-** O'simlik qishga chidamli xayotiy shakliga ko'ra, mevali buta, po'stlog'i kulrang-jigarrang yoki qizil-jigarrang. Yosh kurtaklar yamyashil, zich kigizli tuklar bilan qoplangan. Barglari butun, ellipssimon, pastda tukli. Gullari oq, yolg'iz, yirik, xushbo'y. Mevalar - mayda, etlii, noksimon shakliga ega; rangi sarg'ishlik bilan jigarrang yoki qizg'ish. Mevasi eti ichida qattiq qobiqli beshta urug' mavjud. Aprelda gullaydi, mevalari oktyabrda pishib etiladi.



Mevalar yoqimli shirin bir oz nordon ta'mga ega. Kislotalar (molik, limon, tartarik), taninlar, shakar, tsellyuloza, pektinlar, kaliy tuzlari mavjud; antidiarreal, antidizenterik, oqsil almashinuvini yaxshilash ta'siriga ega. Ular endokrin bezlarga ta'sir qiladi, ayniqsa ular hipofonksiyon bo'lsa. Organik kislotalar jigar, qon tomirlari va asab tizimiga foydali ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda yovvoyi xolda o'sadigan o'simliklarning tabiiy boyligi xar qancha ko'p bo'lmasin, ular muxofaza etilishga muxtoj. Yer yuzida xech qanday bitmas-tuganmas boylik bulmaganidek, o'simliklar dunyosining zaxirasi xam cheksiz emas. Shuningdek, Mexrigiyo xududida tarqalgan intraduktsiya qilingan dorivor o'simlik turlarini qisqacha bo'lsada taxlilini qildik. Xududlarda o'sadigan o'simlik turlarini tabiiy sharoitda saqlab qolish uchun mexrigiyo singari dorivor o'simlik turlarini ko'paytishni axamiyati kattadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Motshakeri M., Ghazali H.M. (2015). Nutritional, phytochemical and commercial quality of noni fruit: A multi-beneficial gift from nature. *Trends in Food Science & Technology*, 45(1), pp. 118-129.
2. Singh, S.P. Guava (*Psidium guajava* L.) Postharvest Biology and Technology of Tropical and Subtropical Fruits. Woodhead Publishing Series in Food Science, Technology and Nutrition. 2011, pp. 213-245
3. Abdulrazaq B. Nafiu, Abdul-musawwir Alli-Oluwafuyi, Abdulraheem Haleemat, Ibrahim S. Olalekan and Mohammad T. Rahma (2019). Papaya (*Carica papaya* L., Pawpaw). *Nonvitamin and Nonmineral Nutritional Supplements*. Pp. 335-359.
4. Тўхтаев Б.Ё., Аҳмедов Э.Т. Доривор ўсимликларни ўстириш ва етиштириш: илмий нашр /«Агробанк» АТБ. -Т.: «ТАСВИР» нашриёти, 2021. -112 б.
5. Obidov M.V. "Janubiy Farg'ona bo'z, o'tloqi-allyuvial tuproqlari va dorivor o'simliklari biogeokimyosi" Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. Farg'ona-2022.
6. Mamayusupova, D. B., & Gofurov, M. R. (2020). THE CONCEPT OF RELIGIOUS TOLERANCE IN THE PROCESS OF SPIRITUAL FORMATION OF SOCIETY. *Theoretical & Applied Science*, (6), 253-256.
7. Мамаюсупова, Д. Б. (2021). Теоретико-методические основы и объективная необходимость развития государственно-частного партнерства в Узбекистане. *Бюллетень науки и практики*, 7(10), 311-321.
8. Мамаюсупова, Д. (2021). Туристический кластерный таъкил қилишда давлат-хусусий шериклигининг концептуал асослари. *Экономика и образование*, (4), 408-414.
9. Dilovarkhon, M. (2021). Legal Framework for Development of Touristic Potential Based on Public-Private Partnership. *Бюллетень науки и практики*, 7(5), 356-361.
10. МАМАЮСУПОВА, Д. Б. (2021). БЮЛЛЕТЕНЬ НАУКИ И ПРАКТИКИ. БЮЛЛЕТЕНЬ НАУКИ И ПРАКТИКИ Учредители: Овечкина Елена Сергеевна, 7(10), 311-321.



11. Мамаюсупова, Д. Б. (2019). МЕХНАТ МИГРАЦИЯСИ ВА ХОТИН-ҚИЗЛАР. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (16).
12. Ravshanbek, J. (2022). CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(4), 304-309.
13. O'G'LI, J. R. M. (2022). METHODS OF ORGANIZING INDEPENDENT STUDY OF STUDENTS IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM. *Ta'lim fidoyilari*, 25(5), 93-97.
14. Jumaboyev, R. M. (2023). METHODOLOGY FOR TEACHING INFORMATION CULTURE TO STUDENTS IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 126-134.
15. Jumaboyev, R. M. (2023). ANALYSIS OF THE SYSTEM OF GRANTING ACADEMIC AND FINANCIAL INDEPENDENCE TO FOREIGN UNIVERSITIES. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 135-145.
16. Maxamadyusuf o'g'li, J. R. (2022). METHODS OF ORGANIZING INDEPENDENT STUDY OF STUDENTS IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM. *Conferencea*, 33-37.
17. Jumaboyev, R. (2022). METHODS OF ORGANIZING INDEPENDENT STUDY OF STUDENTS IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM. In *International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany*. International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany.
18. Jumaboyev, R. (2022). CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES. *Pedagoglar*.
19. Jumaboyev, R. (2021). TEACHING STUDENTS TO CRITICAL THINKING IN THE EDUCATIONAL PROCESS AND ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION. *Scienceweb academic papers collection*.
20. қизи Алибоева, Н. М., & Хошимов, Д. (2022). Таклидий сўзларни типологик ўрганиш муаммолари. *Science and Education*, 3(3), 380-382.